

XIZMAT KO'RSATISH (ISHLARNI BAJARISH)

SHARTNOMASI № 62

Samarqand shahri

«6» fevral 2023 yil

«Samarqand viloyat SEO va JSB» keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi viloyat SEO va JSB boshligi M.T.Nasretdinova nomidan, bir tomondan Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti Rektori v.v.b. A.Elmuurodov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

No	Xizmat turi	O'lchov birligi	O'lchov soni	Narxi 1 tasi uchun	Umumiy
1	Sanitariya-epidemiologik xulosasi berish xizmati	xizmat	1	319000,0	319000,0
2	Yil davonida dozimetrlar bilan laboratoriyaxonalaridagi nurlanishini o'lchab sanitariya-epidemiologik xulosasi berish izmati	xizmat	3	362036,0	1086108,0
	jami				1405108,0

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 Mazkur shartnoma buyicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga tashkilot ish joylarini dozimetrik ulchovdan utkazib sanitariya-epidemiologik xulosa berish va xodimlarini shaxsiy dozimetrdan foydalanishlari uchun (keyingi o'rinlarda "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmat ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar" ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2 Shartnomaning umumiy summasi (**Bir million to'rt yuz besh ming bir yuz sakkiz**) so'm deb belgilangan.

II. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1 "Buyurtmachi" ning xuquqlari.

2.1.1 "Bajaruvchi" dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ xujjatlar bilan ta'minlanishini talab qilish;

2.1.2 "Bajaruvchi" dan "Xizmatlar" "Buyurtmachi" ning xisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3 Bajaruvchi"dan mazkur shartnoma muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatiga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4 Zarur sifatiga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan takdirda o'z tanlashiga ko'ra:- zarur sifatga ega bulmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini; - "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'irlanishi xarajatlarini qoplashni;

-bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5 Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2 "Buyurtmachi" ning majburiyatlari:

2.2.1 "Xizmatlar"ni 2023 yilda budjet dan tashqari mablaglar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2 O'z buyurtmanomasi bo'yicha kursatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3 "Xizmatlar"ga mazkur shartnomaning 3.1 bandida kursatilgan narx buyicha, kabul kilish topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bo'limi ruyxatidan o'tkazgandan so'ng- 10 kun mobaynida xaq to'lash.

2.3 "Bajaruvchi" quyidagi xuquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan xaq tulanishi va amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va xajimda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi" dan talab qilish;

2.3.2 Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi" dan talab qilish.

2.4. "Bajaruvchi" quyidagilarga majbur:

2.4.1 "Buyurtmachi" bilan tuzgan shartnomasi g'aznachilik bulimidan ruyxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar" ni kursatish;

2.4.2 "Buyurtmachi" ga "Xizmatlar" ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8 bandida nazarda tutilgan tartibda uning buyurtmasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3 Agar "Xizmatlar" ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlaridan chekinishga yul qo'yan bulsa, "Buyurtmachi" ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB KITOB TARTIBI

- 3.1 Mazkur shartnomaning bahosi (Bir million to'rt yuz besh ming bir yuz sakkiz so'm). Ko'rsatiladigan "Xizmatlar"ning bahosi mazkur shartnomada ilovada ko'rsatilgan.
- 3.2 Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan nakd pulsiz tartibda hisob kitob qilinadi. Bajariladigan ishlar "Xizmatlar" uchun oldindan to'lov miqdori 30 % ni tashkil qiladi.
- 3.3 Buyurtmachi dozimetrlar butunligi va kaytarilishiga javobgar sanaladi. Buyurtmachi tomonidan dozimetr yukotilgan yoki nosoz xolga keltirigan taq'dirda 600 000,00 sum miq'dorda dozimetr narxi tulab beriladi.

IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

- 4.1 Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishi ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.
- 4.2 Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l quyilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.
- 4.3 "Xizmatlar" qabul qilish topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtmachi" ning hisob- kitob hujjatida g'aznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar" ga haq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.
- 4.4 "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar" ni qabul qilinishi rad etishga haqlidir.
- 4.5 Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar" ning o'zni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.
- 4.6 Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi" ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.
- 4.7 Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajimda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" "Buyurtmachilarning" buyurtmalarining ro'yxatdan utkazish daftarini yuritadi.
- 4.8 "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1 Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va o'ndirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning mikdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.
- 5.2 Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalariga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi mikdorida jarima to'laydi.
- 5.3 "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bulgan "Xizmatlar"ning 25 foizi mikdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashkari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.
- 5.4 "Xizmatlar" ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foiz mikdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmazligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarining buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.
- 5.5 Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga muddati kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi mikdorida maxsus hisob raqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmazligi kerak.
- 5.6 Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki maxsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi (Ish, xizmat bajaruvchi) lar tomonidan qoplanadi.

- 5.7 "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek hatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi xam ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.
- 5.8 Maskur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqorolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.
- 6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita sudga murojat qilishga haqlidir.

VII. SHARTNOMANING AMAL KILISH

- 7.1. Mazkur 2023 yil « 6 » 02 shartnoma 2023 yil « 31 » 12 amalda bo'ladi.
- 7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

VIII. SHARTNOMANING QONUNYI KUCHGA KIRISHI.

- 8.1. 2006 yil 14 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining g'azna ijrosi tug'risidagi qonunning 7-moddasi hamda O'zR Moliya Vazirligiining 2005 yil 5 maydagi 63-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Moliya organlarida budgetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarajatlari to'lovini nazorat qilish tartibi xakida vaqtinchalik nizom (1475-son bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatidan o'tkazilgan)ga asosan shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng konuniy kuchga kiradi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR.

- 9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor kilinishi mumkin.
- 9.2. Mazkur shartnomaga xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shakilda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xaqiqiy hisoblanadi.
- 9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.
- 9.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (ko'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.
- 9.5. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Samarqand viloyat buyicha g'aznachilik bulinmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Ijrochi»

«Samarqand viloyat SEO va JSB»
(budget mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Samarqand sh. Isayeva ko'chasi 40 uy
Tel./faks 231-12-41.
sh/x* 401421860184017074110054001
Budgetdan mablag' oluvchi STIR i 202316556
OKONX 91531

g'aznachilik boshkarmasi nomi: Moliya
vazirligi yagona g'azna hisob varag'i.

g'azna x/v 23402000300100001010

Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent
shahar.XKKM

MFO 00014

G'aznachilik boshqarmasi STIR 201122919

Boshlik M.T.Nasretdinova
(lavozimi) (F.I.SH)

M.O'

Huquqshunos

Licenziya (diplom) № berilgan sanasi:

« » 2023y.

«Buyurtmachi»

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
Samarqand sh. M.Ulug'bek ko'chasi 77-uy
Tel / Fax + (99866) 234-78-92, 234-76-86
SHX: 400910860184017074110054001
INN: 201878451, OKONX: 92110 Moliya vazirligi
Samarqand viloyati g'aznachilik boshqarmasi Yagona g'azna
H/v: 2340 2000 3001 0000 1010
Markaziy bank XKKM Toshkent shahri boshqarmasi
MFO: 00014 INN: 201122919



Rahbar
(lavozimi)

(F.I.SH)

M.O'.
Huquqshunos

Licenziya (diplom) № berilgan sanasi:

« » 2023y.